



Oysuluv BADIKOVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: shohbegin@list.ru

ADChTI dotsenti v.b., PhD D.Qozoqboyeva taqrizi asosida

RAVISHLARNING FUNKSIONAL-STILISTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ravishlarning nutq uslublari doirasida qo'llanishdagi o'ziga xos funksional-stilistik imkoniyatlari taddiq qilingan. Ravishlarning uslubiy bo'yodkorlikka ega bo'lish yoki muayyan uslubga xoslanish jihatlariga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: Badiiy uslub, so'zlashuv uslubi, publisistik uslub, faol ravishlar, nofaol ravishlar, okkazional ravishlar, dialektiizga zos ravishlar, ravishlar sinonimiyasi.

FUNCTIONAL-STYLISTIC POSSIBILITIES OF APPROACHES

Annotation

In this article, the specific functional and stylistic possibilities of ravishes in their use within speech styles have been studied. The attention was paid to the aspects of ravishes having stylistic color or characteristic of a certain style.

Key words: Literary style, speech style, journalistic style, active idioms, passive idioms, occasional idioms, dialectical idioms, synonyms of idioms.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОДХОДОВ

Аннотация

В данной статье изучены конкретные функциональные и стилистические возможности речевых оборотов при их использовании в рамках речевых стилей. Внимание было обращено на аспекты изнасилований, имеющие стилистическую окраску или характерные для определенного стиля.

Ключевые слова: Литературный стиль, речевой стиль, публицистический стиль, активные фразеологизмы, пассивные фразеологизмы, окказиональные фразеологизмы, диалектические фразеологизмы, синонимы фразеологизмов.

"Til – faqat amaliy qo'llanishdagina tildir", - deb yozadi G.O.Vinokur. Shu nuqtai nazardan, til birliklari, xususan, ravishlarni nutqiy vaziyatga xoslanish darajasi, bo'yodkorlik xususiyatiga ko'ra farqlash, fikrni sodda, ixcham, aniq, tushunarli yetkaza olish maqsadida muvofiq variantini tanlash kabi qator masalalar ravishlarning funksional-stilistik imkoniyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda nutqiy xoslanishning so'zlashuv, publisistik, rasmiy, ilmiy va badiiy uslub turlari farqlanadi. Ravishlarning ana shu uslublar doirasida qo'llanish darajasini aniqlashga harakat qildik. Salmoqli nashrlardan biri hisoblangan "O'zbek tili stilistikasi" [5], "O'zbek tilining amaliy stilistikasi" [6] qo'llanmalarida ot, sifat, son, olmosh, fe'l stilistikasiga oid mavzular alohida yoritilgani holda ravish stilistikasi e'tibordan chetda qolganligi bu boradagi tahlillarga ehtiyoj mayjudligini ko'rsatadi.

Yirik uslubshunos olim Suyun Karimov ham "ravishlarning grammatic xususiyatlari haqida deyarli barcha darsliklar va o'quv qo'llanmalarida so'z yuritilganligiga qaramay, ularning stilistik xususiyatlari to'g'risidagi fikrlarni deyarli uchratmaymiz, o'zbek tilida ravishlar uslubiyati va moyori haqida olimlarimiz haligacha o'z mulohazalarini bildirishgan emas", deya e'tirof etadi[1].

S.A.Karimovning "O'zbek tilining grammatic stilistikasi masalalari" ma'ruzalar matni to'plamida ravishlarni sinonimiyasining uslubiy xoslanish imkoniyatlari uning ma'nova turlari doirasida batafsil tahlil qilingan. Olimning xulosasiga ko'ra, ravishlarda harakatning alohida belgi-xususiyatlarini ko'rsatish bilan birgalikda, bu xususiyatlarni so'zlovchi yoki yozuvchining bu harakatlarga subyektiv munosabatini ifoda etuvchi imkoniyatlar ham mayjud. Bir harakat belgisini ko'rsatdigan yoki ravishlar yasaydigan qo'shimchalarining bir

necha variantlari mavjud bo'lishi ularning sinonim tarzda qo'llanishi va bu qo'llanishda stilistik ottenkalarning farqlanishi hamda uslublararo xoslanishini ko'rsatadi [1].

S.Hakimjonovaning "O'zbek tilida holat ravishlarning uslubiy xususiyatlari" nomli maqolasida [1] holat ravishlari o'zining ma'nano nozikliklarini nutq uslublarida to'la namoyon etishi, ularni o'z o'mida to'g'ri qo'llay olish nutqning ta'sirchanligini oshirishi haqida faktik misollar asosida fikr yuritilgan. Biroq, maqolada ayrim ravishdosh (jadallab, lop etib,) va sifat (yaxshi, xomush)ga oid leksemalarning ham ravishlar sinonimiyasi qatorida berilishi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ravishlarning boshqa so'z turkumlari bilan munosabatdoshlikdagi o'xshashlik, yaqinlik muammosi bilan bog'liqdir. Bunda ravishdosh va sifatlarning ham fe'lga bog'lanib, harakat va holatning belgisini bildirib kela olish xususiyati ba'zan chalkashlikka olib keladi. Bu esa ravishlarning murakkab tabiatni ularni tahlil qilishda sinchkovlik bilan yondashish kerakligini ko'rsatadi.

Ravishlarni nutq uslublari doirasida tahlil qilganimizda quyidagi holatlar kuzatildi: 1. Ravishlar eng ko'p qo'llanadigan uslublar bu badiiy va so'zlashuv uslubidir. 2. Badiiy uslubning alohida jihatlari shuki, unda uslubiy bo'yodkor va okkazional ravishlar, muallif variantlari hamda subyektiv baho ottenkali ravishlar faol qo'llanadi. 3. So'zlashuv uslubida ravishlarning noadabiy meyorlashgan variantlari hamda varvarizm shakkllari keng qo'llanadi. 4. Publisistik uslubda, asosan, adabiy tilga xos kitobiy ravishlar qo'llanadi. 5. Sabab va maqsad ravishlari nofaol ravishlar hisoblanadi.

Badiiy uslubda iqtidorli yozuvchi va shoirlar tomonidan qo'llangan individual okkazional ravishlar yoki

jonli xalq tiliga oid uslubiy xoslangan ravishlarni ko'plab kuzatish mumkin.

Lutfinisa yangigina sinkali suvdan chiqqan ko'ylaklarni dorga yoyarkan: "bilmasam", deb qo'ydi. (S.Ahmad, "Ufq") Ushbu jumladagi yangigina sifati kontekstda ravishga xos "hozirgina", "endigina" ma'nolarini ifodalab, jonli xalq tilining stilistik imkoniyatlari naqadar boyligini ko'rsatadi, -gina affiksi esa hissiy bo'yoqdorlikni yanada oshirgan.

Chol ketarkan minnatdorlik bildirdi. – Zap ish qilding-da, Ikrom. Nevaram bo'yninga osilib chuldiraydigan bo'ldi. (S.Ahmad, "Ufq")

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da zab (so'zlashuv uslubiga xos fonetik varianti – zap) leksemasi sifat, ravish va yuklama sifatida izohlangan.

Zab 1. sft. Nihoyatda yaxshi, xo'b; ajoyib, zo'r. Bu yer zab joy jan-da; 2. rvsh. Nihoyatda, juda ham. Qizlar kulishdi: "Salimaxon, o'zingizga ham kelinlik zab yarashar ekan-da"; 3. yuyl. Naq, ayni, xuddi. - Hoshimjon, zab vaqtida keldingiz-da, - dedi bir kun Farmonqul aka Qobilovga. (ЎТИЛ, 2-жилд, 140-6.)

Yozuvchi Said Ahmad Zap ish qilding-da, Ikrom jumlasida chol nutqida ravishning so'zalashuv uslubiga xos variantini qo'llab, ifodaning jonli va ishonarli chiqishiga erishgan.

O'z asarlarida sheva elementlarini muvaffaqiyatlil qo'llab, asarlari jozibadorligiga erishgan yozuvchilardan yana biri Shukur Xolmirzayevdir. Uqishdai ham guppa yiqilib kelibsiz deb eshitdim. (SH.Xolmirzayev, "Arpali qishlog'ida")

Guppa 1. guppa tashlamoq. Zarb bilan yiqilmoq; zarb bilan o'zini otmoq. Katta oqar suvni sira kechmagan qozoqiy cho'l oti qamchi zarbidan o'zini guppa daryoga tashladi. A.Hakimov, Ilon izidan. (ЎТИЛ, 1-жилд, 527-б.)

Shu o'rinda bir mulohazani aytib o'tish lozimki, - a affiksi orqali taqlid so'zlardan ravish yasalishi kamunum bo'lganligi uchun bo'lsa kerak, e'tibordan chetda qolgan, darslik va qo'llanmalarda aks etmagan. Yuqorida berilgan misoldagi guppa ravishi shu usul bilan yasalgan: gup(p) +a, bunda tovush orttirilishi hodisasi ro'y bergan.

Gup taqlid so'z. Og'ir narsaning urilishi natijasida hosil bo'ladigan bo'g'iq ovoz haqida. (ЎТИЛ, 1-жилд, 527-6.)

Shevaga xos duvva ravishi ham shu usul bilan yasalgan: duv(v)+a.

Botir chavandoz duvva qizardi. (J.Kengboyev, "Mehmon")

Mayram opa fotiha o'qib, irg'ib turdi:

Men ertan-mertan ularning yurtiga boraman. (SH.Xolmirzayev, "Arpali qishlog'ida") Bu jumlada erta-indin ravishining sheva varianti ertan-mertan shaklida qo'llangan bo'lib, ifodaning o'ziga xosligini ta'minlagan.

Tadqiqotchi M.Qosimova Tog'ay Murod o'z asarlarida affikslarning yangi ma'noma qirralarini kashf etib, jumladan, ravish turkumiga oid -ona affiksi asosida ham original okkazionalizmlar hosil qilganligi haqida fikr yuritib, bular matnning jozibadorligi, badiiy bo'yoqdorligi, hissiz ta'sirchanligini oshirishda muhim uslubiy vosita vazifasini o'taganligini ta'kidlaydi [3].

Ona affiksi fors-tojik tilidan kirib kelgan bo'lib, harakatning belgisini biror voqe-hodisaga o'xshatish, taqqoslash ma'nosidagi ravish yasaydi: mardona, qahramonona, olmona kabi. Tog'ay Murod kinoyaviy o'xshatish, taqlid ma'nosidagi «raisona», «raykomona», «kampirona», «camaldorona» kabi yangi so'zlarni yasaydiki, ular yozuvchining badiiy niyatini o'ziga xos tarzda ifodalashga, holatni yorqin tasavvur qilishga, personaj ruhiyatini bo'rttirib tasvirlashga xizmat qilgan.

Ma'lumki, badiiy uslubda personajlar nutqining originalligi va individualligini ta'minlash maqsadida

so'zlashuv uslubi elementlaridan keng foydalaniladi. M.Qosimova yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotida Tog'ay Murod ijodiga xos dialektilamlarni so'z turkumlari bo'yicha tasniflar ekan, ravish so'z turkumiga oid sheva so'zlarini quyidagicha tavsiflaydi:

a) ana shu yoqqa - ashiyoqqa shaklida: Sizdan oldin ashiyoqqa bir balo o'tdi, - deydi bobomiz. (T.Murod, "Otamdan qolgan dalalar")

b) ortiqcha - oshiqcha shaklida: Shu boisdan Tarlonni oshiqcha zarbalamadim. (T.Murod, "Ot kishnagan oqshom")

v) mahalliy aholining so'z yasash usuliga asoslangan okkazional ravishlar: Azonshomda bir dona shona tugdi. (T.Murod, "Otamdan qolgan dalalar")

Odam toltsushda tamaki cheksa nima bo'ladi? (T.Murod, "Otamdan qolgan dalalar")

Shuningdek, olima adib ijodida ravishlarning ma'no jihatdan har qaysi turiga oid dialektilamlarni tasniflagan: 1) holat ravishi: salqi, yelvagay, sidirg'a, tayin, azzancha, ulaybulay, ila-bila, sel-sebor, paydar-pay, illi-billa, elan-qaran, bosh-adog'iga, ilkis-ilkis, hadaha-hadaha, itirqin-itirqin; 2) payt ravishi: tag'in, boyagina, boyanagi, tonglay, bemavrid, ertamatian, elburutdan, eldan burun, saharlayin, halizamat; 3) o'rinn ravishi: oftobiyor, oftobro'ya, eshik-ora, tevarak-girdi; 4) daraja-miqdor ravishi: xiyol, picha, do'rjiroq, kamchil, duyum-duyum, gartdak-gartdak; 5) sabab ravishi: beyoziqdan-beyoziq; 6) maqsad ravishi: ilkisdan [3].

Demak, bunday lingvopoetik yondashuvlar jonli xalq tiliga oid boy manbadan foydalanishning uslubiy imkoniyatlarini har tomonlama o'rganishga yordam beradi.

Publisistik uslubda qo'llangan ayrim ravishlarni tahsilga tortamiz.

Bu yo'l shu qadar chuqur ma'noga egaki, o'ylasam to'lib-toshib ketaman. ("Yangi O'zbekiston" gazetas)

Ro'ziqul bobom Ikkinchiji jahon urushi qatnashchisi. Hamma nuroniyalar qatori u ham har gal duoga qo'l ochganida Yaratgandan dastlab el-yurtga tinchlik, xotirjamlik so'rар edi. ("Yangi O'zbekiston" gazetas)

Karra (arabcha – marta) Sanoq sonlar bilan qo'llanib, harakatnint son bildirgan mikdordagi takrorini bildiradi; marta. Yetilmog'i uchun u singari zot.. Bahor yuz karra gul ochmogi lozim. (ЎТИЛ, 2-жилд, 378-б.)

Yuqoridagi misolda karrasiga ravishi muallif okkazionalizmi bo'lib, "birdan", "ko'p marta" semalarini ifodalashga xizmat qilgan va jumlaning ta'sirchanligini ta'minlagan.

Ravishga xos funksional xususiyatlardan yana biri shuki, bir ravish kontekstga ko'ra, turli ma'nolarni ifodalashi mumkin. "Ravishning ko'p ma'noliligi ularni LMGga ajratishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, nari-beri ravishi o'rinni (Stollarni nari-beri surdik) va holatni (U nari-beri nonushta qildi) ifodalashi mumkin" [2].

Mazkur misollardagi yaqindan tanishish, yaqinroq tanishtirish birikmalaridagi yaqindan, yaqinroq ravishlari ham har biri kontekstda alohida ma'nano anglatadi.

Yaqin [arabcha - haqiqiy bilim, qat'iy ishonch] 1. Oralilq masofa uncha katta bo'limgan, uzoq emas. Eng yaqin yo'l — shu; 2. Nutq so'zlanayotgan paytdan vaqt oralig'i uncha katta bo'limgan. Yaqin fursatda diydor ko'rishmoqni orzu qilamiz. (ЎТИЛ, 5-жилд, 129-6.)

Yaqin ravishi, odatda, makon va zamonga nisbatan, ko'chma ma'noda esa munosabatlar iliqligi, yaxshiligi ma'nosida qo'llanadi. Yuqoridagi misollarda yaqindan tanishish, yaqinroq tanishtirish birikmalarida ana shu ko'chma ma'noning ma'naviy boylikka, jahon adabiyoti durdonalariga nisbatan qo'llanishi asosida yana bir sememasni yuzaga kelgan.

Lekin nima borligi oldindan ayon bo'lsa, yashashning qizig'i qolmaydi. (payt ma'nosi)

Oldinda va orqada bir qancha maxsus mashina bilan yo'liga chiqdik. (o'rinn ma'nosi)

“Uzoqroq turganimda edi, qizg‘aldoq va lola ochilgan mahal bir toqqa chiqardim”, - armon qilgan bo‘ldi Yusuf. (payt ma’nosı)

Ba’zan ravishlar birikma tarkibida ko‘chma ma’no anglatib, ibora shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Nari rvsh. 1 So‘zlovchidan yoki so‘z borayotgan payt yo o‘rindan uzoq, olis. (O‘TIL, 2-jild, 18-b.)

Eng qiyin holatlarda “ket bu yerdan, halaqt berma” kabi o‘zidan nari qilish bola tomonidan aynan quyidagicha qabul qilinadi: bola – halal beruvchi, uni qadrlashmaydi, undan halos bo‘lishni hohlashadi.(Psixolog maslahatidan) (o‘z ma’noda)

Ilmiy uslubda, ko‘pincha, holat, payt, miqdor-daraja ravishlari xoslanganligi kuzatildi.

Talaba har bir manbani dastlab tanishish uchun o‘qib chiqadi, keyin qaytadan sinchiklab o‘rganadi. Agar talaba o‘z

qo‘li bilan ko‘chirib olmoqchi bo‘lsa, originaldan aynan ko‘chirma olishga alohida e’tibor berishi kerak. (O‘quv qo‘llanma)

Elektromagnetizm bo‘limining boshlanish qismida magnetiklarning magnit xossalari odamlarga tokning magnit xossalalariga nisbatan ancha ilgari ma’lum bo‘lganini ta’kidlagan edik. Amaliy elektrotexnikada ishlataladigan o‘tkazgichlar simmetrik shaklga ega va ular bir tekisda zaryadlanadi. Bunday zaryadli tizimlar uyg‘otgan elektr maydon kuchlanganligini Gauss teoremasi asosida hisoblash juda qulay. (“Fizika” darsligi)

Demak, ravishlarning har bir uslubiy xoslangan shakli o‘z o‘rnida va o‘ziga xos tarzda muayyan stilistik imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov S.A. O‘zbek tilining grammatick stilistikasi masalalari. Ma’ruzalar matni. Samarqand, 2012.
2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006.
3. Qosimova M.B. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog‘ay Murod asarlari asosida): filol.fan.nomzodi diss...Toshkent, 2007.
4. Hakimjonova S. O‘zbek tilida holat ravishlarining uslubiy xususiyatlari // FarDU Ilmiy xabarlar.№4, 2019.
5. Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo‘ng‘orov R, Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. T.: “O‘qituvchi”, 1983.
6. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent: O‘ituvchi, 1992.